

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI  
SHARQ FILOLOGIYASI VA FALSAFA FAKULTETI**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: “Hozirgi fors tilida turkiy o’zlashmalar”**

Bajardi: “Filologiya (sharq tillari)”

ta’lim yo’nalishi bitiruvchi kurs talabasi

Djafarov Bexzod Farxodovich \_\_\_\_\_

Ilmiy rahbar: “Eron-afg’on filologiyasi”

kafedrasining professori, f.f.d. Quronbekov A.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi hozirgi fors tilidagi turkiy o’zlashmalarning holati va o’rnini aniqlash shuningdek, semantik va grammatik xususiyatlarini yoritib berish. Shu bilan birga ishning asosiy vazifalari quyidagicha belgilandi:

1. Hozirgi fors tilidagi turkiy o’zlashmalarni manbalardan ajratish
2. Turkiy o’zlashmalarning tarixiy jarayonini analiz qilish, ikki til orasidagi aloqalarni o’rganish
3. Turkiy o’zlashmalarni mavzular bo’yicha klassifikatsiyalash
4. Turkiy o’zlashmalarni mustaqil so’z turkumlari bo’yicha tahlil qilish va ularning morfologik moslashuv jarayonini kuzatish
5. Hozirgi fors tilidagi turkiy o’zlashmalarni ma’nolarini va ularning o’zgarishini o’rganish .

## Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi

“Sharq filologiyasi va falsafa”

fakulteti dekani

f.f.n. dots. J.T. Ziyomuhamedov

\_\_\_\_\_

“ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2012 yil

“Eron-afg'on filologiyasi”

kafedrasi mudiri

f.f.n. dots. X.Z. Alimova

\_\_\_\_\_

“ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2012 yil

## MUNDARIJA

### KIRISH

Hozirgi fors tilidagi turkiy o'zlashmalar.....3

### ASOSIY QISM.

#### I.BOB. HOZIRGI FORS TILIDAGI TURKIY

##### O'ZLASHMALARNING MAVZULAR TURKUMI

1.1 Hayvonot olami mavzusidagi leksik- semantik guruh.....	9
1.2.Oziq- ovqat mavzusidagi leksik- semantik guruh.....	10
1.3.Maishiy mavzudagi leksik- semantik guruh.....	11
1.4.O'simliklar olami mavzusidagi leksik- semantik guruh.....	12
1.5.Murojaat va hurmatlash mavzusidagi leksik- semantik guruh.....	13
1.6.Holat va joy nomlari leksik- semantik guruhi .....	14
1.7.Harbiy mavzuga oid leksik- semantik guruh.....	15
1.8.Kiyinish va bezanish mavzusidagi leksik- semantik guruh .....	16
1.9.Ijtimoiy turmush leksik- semantik guruhi .....	17

#### II.BOB.HOZIRGI FORS TILIDAGI TURKIY

##### O'ZLASHMALARNING MORFOLOGIK TAHLILI

2.1. Ot.....	20
2.2. Sifat.....	25
2.3. Son.....	27
2.4.Ravish .....	28
2.5. Fe`l .....	29
2.6. Turkiy so`z yasovchi qo`shimchalar.....	31

#### III.BOB. HOZIRGI FORS TILIDAGI TURKIY

##### O'ZLASHMALARNING MA'NO XUSUSIYATLARI

3.1. Turkiy o`zlashmalarda ma`no torayishi hodisasi.....	35
3.2. Turkiy o`zlashmalarda ma`no kengayishi hodisasi.....	36
3.3. Turkiy o`zlashmalarda yangi ma`no kasb etishi hodisasi.....	37

**XULOSA.....**40

**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....**42

## KIRISH

Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmashligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qatiyat va ma'suliyatimizni yo'qotsak bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zibo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin.<sup>1</sup>

**Mavzuning dolzarbligi.** Til ijtimoiy hodisadir, shuning uchun jamiyatdagi har bir o'zgarish unda o'z aksini topadi. Jamiyatdagi bu holat, ya'ni o'zgarishlar boshqa tillarda bo'lgani singari fors tiliga ham o'z ta'sirini o'tkazgan.

Eron o'zining uzoq o'tmishi mobaynida turli xil davlatlar va millatlar bilan aloqada bo'lgan. Bu kabi aloqalarning asosiy omili Eron xalqining boy madaniyati, geografik joylashuvi xususan, buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashganligidir..

Shu o'rinda eronlik olim Malik-ush-shuaro Bahorning bu borada bildirgan fikriga murojat qilsak:

“Jahonda boshqa til bilan munosabatda bo'lmagan til yo'q, albatta o'zga xalq bilan aloqada bo'lmagan xalqdan tashqari, buning esa imkoni yo'qdir”. Xalqlar, madaniyatlar o'zaro aloqada bo'lar ekan, mana shu xalqlarning tili aloqalar ta'siri ostida qoladi. O'zlashmalar mana shunday ta'sirning mevasidir.

Hozirgi fors tilida turkiy o'zlashmalar mavzusi ancha murakkab va o'ta qiziqarlidir. Hozirgi fors tili lug'at tarkibida turli tillardan kirgan o'zlashmalar mavjud bo'lib, turkiy o'zlashmalar ana shu o'zlashmalarning bir qismi hisoblanadi. Turkiy o'zlashmalar fors tili leksikologiyasidagi dolzarb mavzularidandir, chunki ular boshqa tillardan kirgan o'zlashmalar singari fors tili lug'at tarkibini boyishiga hizmat qiladi. Avvalambor o'zlashmalar haqida fikr yuritsak.

O'zlashma – bu biror bir tildan boshqa bir tilga lug'at birliklarining ko'chishidir. O'zlashmalar, shuningdek, o'zlashma so'zlar deb ham yuritiladi.

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch T., 2011.6-bet .

O'zlashmalar biz avval aytib o'tganimizdek tilning lug'at boyligini oshiradi, yangi o'zaklar, so'z birikmalari va terminlar uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Shuni takidlab o'tish joizki, o'zlashmalar biror-bir tilga kirib kelgandan so'ng o'sha tilga moslashadi, o'zida grammatik, semantik, fonetik va orfografik o'zgarishlarni o'tkazadi. Aynan mana shu adaptatsiya o'zlashmalarning xalqaro so'zlardan ajratib turadi. Xalqaro so'zlar esa o'zida begona tilga xos xususiyatlarni saqalab qoladi. Bu fonetik, orfografik, grammatik va semantik xususiyatlar bo'lishi mumkin.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** Bu mavzuning o'rganilishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Xususan hazrat Mir Alisher Navoiy o'zlarining 1499 yilda yozilgan "Muhokamat ul-lug'atayn" asarlarida fors va turkiy tilni o'zaro qiyoslab berganlar. Bu asarda bir qator mavzular keltirilib, man shu mavzularga oid so'zlarning modeli fors tilida yo'q ekanligi va bular aynan turkiy tillardan kirganligi takidlanadi. Masalan shunday deyiladi:

... Va o'rdakning anvoi... yetmish nav bo'lurkim, sort borisin «muryābiy» o'q der. Va agar bir-biridan mutamayyiz qilsa turkcha ot bila-o'q aytur.

Yana ot anvoidaki, to'buchoq va arg'umoq va yana va yobu va totu yo'sunlug' - borini turkcha - o'q ayturlar. Va otning yoshindag'i ko'prakin turkcha ayturlar. Bir qulunni «kurra» derlar, o'zga «toy» va g'o'nan va do'nan va tulan va chirg'a va lang'a deguncha fasihiroqlari turkcha derlar va ko'pragi buni bilmaslar.

Va otning iyarin agarchi «zin» derlar ammo ko'prak ajzosin, misli «jibilgir» va «hano» va «to'qim» va «jorlig'» va «ularchoq» va «g'anjug'a» va «jilbo'r» va «qushqun» va «qantar» va «tufak» va «to'qa» yo'sunluq ko'pin turkcha ayturlar. Va qamchini agar «toziyona» derlar, ammo «buldurgasin» va «chubchurnasin» turkcha ayturlar.

Va «jiba» va «javshan» va «ko'ha» va «qolg'anduruq» va «qorbichi» va «kechim» va «oha» yo'sunlug' urush asbobin ham turk bila ayturlar.

Va ma'hudiy albisadan misli «dastur» va «qalpoq» va «navruziy» va «to'ppi» va «shirdog'» va «dakla» va «yalak» va «yog'lig'» va «terlik» va «qur» yo'sunlug' nimalarni borisin turk tili bila ayturlar.

Yeguliklardin agarchi qo‘y muchalaridan ba‘zig‘a ot quyupturlar, ammo «orqa»ni va «oshug‘lug‘ ilik»ni va yon «so‘ngak»ni va «qoburg‘a»ni va «ilik»ni va «o‘rta ilik» va «bo‘g‘uzlag‘u»ni turkcha ayturlar. Va yana ba‘zi yemaklardan «qaymog‘» va «qatlama» va «bulamog‘» va urkamochni ham turkcha ayturlar. Va qimizni va suzmani va kumoch va tolg‘onni ham turkcha ayturlar. Va bu nav juz‘iyotqa mashg‘ulluq qilsa bag‘oyat ko‘p topilur.<sup>2</sup>

Shuningdek G. Zarinezodaning “Азербайджанские слова в персидском языке (в период сефевидов)” (Баку 1955) nomzodlik dissertatsiyasi mavjud. Mazkur nomzodlik ishida asosan Safaviylar davridagi turkiy o‘zlashmalar tadqiq etilgan.

Bundan tashqari A.K. Borovkovaning “Таджикско-Узбекиское двуязычие и вопрос о взаимовлиянии Таджикско-Узбекиских языков” (Ташкент 1952) ishi mavjud.

Eronlik olimlar ham bu mavzu bo‘yicha izlanishlar olib borishgan: Durdoni Rahimlining “Vājehā-ye torkiy dar zabān-e fārsi” (Tehron 1381 h.sh) kitobi mavjud. Muallif mazkur kitobida 200 dan ortiq turkiy so‘zni keltirib sharhlaydi. Yana bir eronlik olimlar tomonidan bu mavzu bo‘yicha qilingan ishlardan biri Muhammad Sodiq Noyibiyning “Vojegān-e zabān-e torkiy dar pārsiy” (Tehron 1380 h.sh.) kitobidir. Olim o‘zining mazkur kitobida jami 1000 ta turkiy o‘zlashmalarni keltirib sharhlaydi. Shuningdek, turkiy o‘zlashmalarning fors tiliga kirib kelish yo‘llari va umumiy turkiy tillar haqida so‘z yuritadi. Ammo bu kitob Eronning o‘zida ko‘pchilikning tanqidiga uchradi. Chunki muallif mazkur kitobida fors tili lug‘at tarkibida mavjud bo‘lmagan va ishlatilmaydigan turkiy so‘zlarni fors tilidagi turkiy o‘zlashmalar sifatida qaragan, masalan: اغرق، يغمور، ايناغ، kabi so‘zlar. Shuningdek, u

ba‘zi forsiy so‘zlarni kelib chiqishi turkiy deb baholagan, masalan: آتش، برابر، ايران، دريا، شاه kabi so‘zlar. Muallifning fikricha italiyan tilining 40%, ingliz tilining 20%, nemis tilining 17%ni asl turkiy so‘zlar tashkil etadi. Ammo muallif esa mazkur ma‘lumot haqiqiylikini isbotlovchi dalil va manbalar bermagan. Lekin uning bir qator

---

<sup>2</sup> [www.ziyonet.com/index.php](http://www.ziyonet.com/index.php)

diqqatga sazovor fikrlari ham bor. Xususan, u bir qancha turkiy o'zlashmalarni izohlab bergan.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari.** Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi hozirgi fors tilidagi turkiy o'zlashmalarning holati va o'rini aniqlash shuningdek, semantik va grammatik xususiyatlarini yoritib berish. Shu bilan birga ishning asosiy vazifalari quyidagicha belgilandi:

1. Hozirgi fors tilidagi turkiy o'zlashmalarni manbalardan ajratish
2. Turkiy o'zlashmalarning tarixiy jarayonini analiz qilish, ikki til orasidagi aloqalarni o'rganish
3. Turkiy o'zlashmalarni mavzular bo'yicha klassifikatsiyalash
4. Turkiy o'zlashmalarni mustaqil so'z turkumlari bo'yicha tahlil qilish va ularning morfologik moslashuv jarayonini kuzatish
5. Hozirgi fors tilidagi turkiy o'zlashmalarni ma'nolarini va ularning o'zgarishini o'rganish .

**Bitiruv malakaviy ishining manbalari.** Bitiruv malakaviy ishiga manba sifatida fors tilida chop etilgan badiiy va ilmiy adabiyotlar, gazetalar, internet ma'lumotlari olindi (adabiyotlar ro'yxatida qayd etilmoqda). Manbalar tarkibida turkiy o'zlashmalarni ajratib olish uchun M. Muyinning "Farhang-e fārsi" (Tehron, 1371 h.sh), Ali Akbar Dehxudoning "Luyatnāme" (Tehron, 1372 h.sh) va M.A.Gaffarovning "Персидско-русский словарь" (Москва, 1976)dan foydalanildi. Shuningdek turkiy o'zlashmalarning turkiy tillardagi ma'nolarini aniqlash uchun Yu. V. Shekaning "Турецко-русский и русско-турецкий словарь" (Москва, 2006) va Shukru Holuk Akalin tahriri ostidagi "Türkçe sözlük" (Ankara, 2005)lardan foydalanildi

**Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi.** Bitiruv malakaviy ishiga metodologik asos sifatida mashhur eronshunos olimlarning, xususan, leksikologiya,terminologiya va so'z yasalishida faoliyat olib boruvchi mutaxassislarning (A.Quronbekov, L.S. Peysikov, Yu.A. Rubinchik, A.A.Vohidov) va shuningdek, eronlik tilshunos olimlarning (Durdona Rahimli, Muhammad Sodiq

Noyibiy) ishlarini oldik. Ishni bayon etishda o'zbek, rus va fors tilshunosligidagi o'zlashmalar va terminlar mavzusiga oid ishlarga suyanildi.

**Transkripsiya tizimi.** Bitiruv malakaviy ishida keltirilgan forscha misollarni yoritishda A. Quronbekov, A. Vohidov, T. Ziyayevalarning "Fors tili" (Toshkent. 2009)da keltirilgan transkripsiya tizimidan foydalandik.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishini kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyot va manbalar ro'yxati tashkil qiladi.

### **I bob. Hozirgi fors tilidagi turkiy o'zlashmalarning mavzular turkumi**

Qadimdan eroniy va turkiy xalqlar yonma-yon yashab o'zaro iqtisodiy, siyosiy madaniy, ijtimoiy, harbiy va boshqa sohalarda aloqalar o'rnatganlar va bu aloqalar

ta`sirida fors va turkiy tillar rivojlangan. Fors tilidan turkiy tillarga, turkiy tillardan esa fors tiliga turli xil mavzuga oid soʻzlar kirib kelgan. Bunday oʻzlashmalar ikki xalq tilining lugʻat tarkibidan muqim oʻrin ola boshlagan.

Fors tiliga turkiy tillardan oʻzlashmalarning kirib kelishi haqida turli xil qarashlar va fikrlar mavjud. Ulardan biri Eronlik tilshunos olim Muhammad Sodiq Noibiyning fikricha hozirgi fors tiliga turkiy oʻzlashmalar ikkita asosiy kanal orqali kirib kelgan.

1) Eron hududida hukmronlik qilgan turkiy hukimdorlar orqali.

2) Forsiy zabon turkiy xalqlar orqali.

Eronning islomdan keyingi tarixning 75% dan ortiq davri mobaynida Gʻaznaviylar, Xorazmiylar, Saljuqiylar, Temuriylar, Ilakxoniylar, Oq qoyunlilar, Qora qoyunlilar, Safaviylar, Qojorlar va boshqalar bu diyorda hukmronlik qildilar. Bunday uzoq muddatli hukmronlik davrda oʻzlari bilan turli xil sohaga oid atamalarni olib kirdilar. Bu turkiy oʻzlashmalarning baʼzilari hozirgi fors tilida ham uchratishimiz mumkin. Ammo koʻplari istemoldan chiqib ketib faqatgina oʻsha davr tarixiy va adabiy manbalarda saqlanib qolgan<sup>3</sup>.

Turkiy tillardan oʻzlashmalar fors tiliga kirib kelishi bir necha bosqichda boʻlib oʻtgan. Ilk bosqich Somoniylar davriga toʻgʻri keladi. Somoniylar davlatining rasmiy va saroy tili garchand forsiy-dariy tili boʻlsa ham, oddiy xalq asosan turkiy tillarda soʻzlashgan. Ayniqsa Somoniylar armiyasidagi sarbozlar turkiylar boʻlib, harbiy munosabatlar turkiy tillarda amalga oshirilgan. Natijada bir qator harbiy sohaga oid ilk soʻzlar fors tiliga kirib keldi.

Keyingi bosqich esa Gʻaznaviylar va Saljuqiylar davriga toʻgʻri keladi lekin, turkiy oʻzlashmalarning kattagina qismi moʻgʻullar istilosidan soʻng fors tiliga kirib kela boshladi. Safaviylar va Qojorlar davrida esa fors tilidagi turkiy soʻzlarning miqdori keskin oshdi.

Fors tiliga turkiy oʻzlashmalarning kirib kelishining yana bir yoʻli – bu forsiy zabon turkiy xalqlardir. Eron va uning atrofidagi hududlarda etnik jihatdan turkiy qavmlarga mansub xalqlar istiqomat qilib kelishgan. Ular garchand turkiylarga

---

<sup>3</sup> A.Quronbekov .Fors tili leksikologiyasi. T., 2008.49-bet.

mansub xalqlar bo'lgan bo'lsa ham, fors tilida ham, turkiy tillarda ham bemalol so'zlasha olishgan. Xususan Gilon, Mozandaron, Luriston, Tabriz, Isfahon kabi shaharlarda etnik jihatdan turkiy aholi istiqomat qilib kelishgan va turkiy til ikkinchi til sifatida hizmat qilgan.

Eron adabiyotida o'chmas iz qoldirgan Jaloliddin Rumi, Xoqoniy, Shirvoniy, Nizomiy Ganjaviy, Soyib Tabriziy, Fuzuliy, Parvin E'tisomiy, Shahriyor kabi shoir va shoirlar forsiy zabon turkiylardir. Ular fors she'riyatini rivojlanishida ulkan xissalarini qo'shishgan. Fors she'riyatidagi uslublardan ikkitasini, hindiy va ozarbayjoni uslublarini vujudga kelishiga sababchi bo'ldilar. Ular o'z ijodlarida turkiy so'zlardan foydalanishgan va umrboqiy mumtoz asarlar yaratishgan. Ular orasida Jaloliddin Rumiyning o'rni beqiyosdir. U o'z sherlarida yuzlab turkiy so'zlarni ishlatgan<sup>4</sup>.

بیا که باز جانها را شهنشہ باز می خواند  
 بیا که گلہ را چوپان بسوی دشت می راند  
 بہار است و ہمہ ترکان بسوی بیلا رو کردہ  
 کہ وقت آمد کہ از قشلق بیلا رخت گرداند

Mazkur Rumiyning she'rida چوپان *čupān* ترک *tork* بیلا *yeylā* قشلق *yešlay* kabi turkiy so'zlar mavjuddir va adib bu so'zlardan mohirona foydalangan. Turkiy tillardan yuzlab o'zlashmalar iqtisodiy, madaniy, manaviy, ma'muriy tuzilish, maishiy mavzularda, shuningdek, harbiy, tijorat, mayda hunarmandchilik sohasiga oid so'zlardir.<sup>5</sup>

Bitiruv malakaviy ishimizda to'plangan fors tilidagi turkiy o'zlashmalardan quyidagi leksik- semantik guruhlar aniqlandi.

### 1.1 Hayvonot olami mavzusidagi LSG. Biz mazkur guruhni uch guruhga bo'ldik.

#### - Uy hayvonlari mavzusidagi LSG

تکه	<i>take</i>	echki
الاغ	<i>olāy</i>	eshak

<sup>4</sup> محمد صادق نایبی. واژگان ترکی در زبان پارسی. تهران. ۱۳۸۰

<sup>5</sup> A. Quronbekov. Fors tili leksikologiyasi. T., 2008.49-bet.

قاطر	<i>γāter</i>	xachir
------	--------------	--------

خدا بیامرزد پدرم را یک الاغ بندری خریده بود.<sup>6</sup>

*Xodā biomrazad pedaramrā yek olāy-e bandari xaride bud*

Otamni xudo rahmatiga olgan bo'lsin, bir bandariy eshak sotib olgan edi.

#### - Yovoyi hayvonlar LSG

قورباغه	<i>γurbāye</i>	qurbaqa
ارسلان	<i>arslān</i>	arslon
جیران	<i>jayrān</i>	jayron
قوچ	<i>γuč</i>	yovoyi echki

قورباغه لب بر که، روی سنگی نشستہ بود.<sup>7</sup>

*γurbaye lab-e berke ru-ye sangi nešaste bud.*

Qurbaqa hovuz chetida, bir tosh ustida o'tirar edi.

#### - Qushlar mavzusidagi LSG

قوش	<i>γush</i>	qirg'iy
بلدچین	<i>belderč'in</i>	bedana
قرقاول	<i>γeryāvol</i>	qirg'ovul
غاز	<i>γ'āz</i>	g'oz
اردک	<i>ordak</i>	o'rdak
قرقی	<i>γeryi</i>	qirg`iy

آره، یکیشون بی معرفتی کرده بود منم دو تا از قرقی هاش را قر زدم.<sup>8</sup>

<sup>6</sup> J.Hazratqulov, M. Abdusamatov. Eron adabiyoti xrestomatiyasi .T., 1992. 99-bet.

<sup>7</sup> O'.K 238-bet.

<sup>8</sup> J.Hazratqulov, M. Abdusamatov. Eron adabiyoti xrestomatiyasi .T., 1992. 263-bet.

*Āre, yekišun bi marifati karde bud, manam du tā az yeryihāšrā γor zadam*  
 Ha, ulardan biri tarbiyasizlik qilgan edi, men ham qirg'iyalarining ikkitasini  
 o'g'irlab olgan edim

Yuqoridagi uchta jumlada قرقي ، قورباغه ، الاغ so'zlari turkiy tildan kirgan o'zlashmalardir ularning har biri alohida LSGga mansub bo'lsa ham, biz ularni umumiy, hayvonot olami LSGiga kirgazdik

## 1.2 Oziq-ovqat mavzusidagi LSG

قيماق	<i>γeymāy</i>	qaymoq
قرمه	<i>γorme</i>	qovurma
دلمه	<i>dolme</i>	dolma
پنير	<i>panir</i>	pishloq
آذوقه	<i>āzuyē</i>	oziq-ovqat
قيمه	<i>γiyime</i>	qiyma
ششلیک	<i>šešlik</i>	shashlik
قاتق	<i>γātey</i>	qatiq
دیشلمه	<i>dišlame</i>	dishlama (qand bo`lagi)

اما در همان لشکر کشی اول، در وسط راه متوجه شد که یادشان رفته است آذوقه بردارند.<sup>9</sup>

*Ammo dar hamān laškarkaši-ye avval, dar vasat-e rāh motavajjoh šod ke yādešān rafte ast āzuyē bar dārand.*

Ammo o'sha ilk lashkar tortishda, yo'lning o'rtasida yegulik olishlari esdan chiqib qolganligini anglab yetdi.

<sup>9</sup> احمد عربلو آدم های آبرودار. تهران. ۱۳۴۴/۲۴۵

Mazkur jummalarda آذوقه so'zi turkiy o'zlashmadir.

**1.3 Maishiy mavzudagi LSG.** Bitiruv malakaviy ishi mobaynida to'plangan misollar shuni ko'rsatadiki, fors tilidagi turkiy o'zlashmalarning eng katta qismi maishiy hayotga oid so'zlar.

اجاق	<i>ojāγ</i>	o'choq, pech
قازقان	<i>γāzyān</i>	qasqon
قاشق	<i>γāshey</i>	qoshiq
قاب	<i>γāb</i>	ramka
قيچى	<i>γeyči</i>	qaychi
چاقو	<i>čāγu</i>	pichoq
دشک	<i>došak</i>	toshak
قابلمه	<i>γāblame</i>	kastryulka

رختشرا در آورد، کیسه توتون و چبکش را بر داشت رفت بالای پشت بام<sup>10</sup>

*raxtašrā dar āvard, kise-ye tutun va čoboγašrā bar dāšt raft bālā-ye pošt-e bām*  
Kiyimlarini yechib tamaki xaltasi va trubkasini olib bolaxonaga chiqdi.

- پس برای کی نگهداشته بودی؟

- بیست تومان، یک قوتی<sup>11</sup>

*pas barāye ki negāh dāšte budi?*

- *bist tuman, yek quti*

- Unda kim uchun olib qo'ydingiz?

- Yigirma tuman, bir quti

<sup>10</sup> J.Hazratqulov, M. Abdusamatov Eron adabiyoti xrestomatiyasi T., 1992. 95-bet.

<sup>11</sup> J.Hazratqulov, M. Abdusamatov. Eron adabiyoti xrestomatiyasi. T., 1992. 46-bet.

شامی ها را با چند تخم مرغ آب پز و مقداری پنیر در بشقابی گذاشت.<sup>12</sup>

*Šomihārā bā čand toxm-e morḡ-e āb paz va meydāri panir dar bošqābi gozāšt*  
Kechka taomlarini bir necha suvda pishgan tuxum va ozgina pishloq bilan  
likopchaga qo'ydi.

Bu jumalardagi قوتی, بشقاب, چیق so'zlari maishiy mavzuga oid turkiy o'zlashmalardir.

**1.4 O'simliklar olami mavzusidagi LSG.** Bu mavzudagi o'zlashmalar bitiruv malakaviy ish mobaynida kam uchratildi.

قارچ	<i>ḡārc</i>	qo'ziqorin, zamburg'
توتون	<i>tutun</i>	tamaki
قیسی	<i>ḡeyysi</i>	o`rik, turshak
کاکوتی	<i>kākuti</i>	kaklik o`ti (o`simlik turi)

توتون، گیاهی با برگهای پهن است که در اصل به آمریکای شمالی و جنوبی رشد می کرد.<sup>13</sup>

*Tutun giyāhi bā barghā-ye pahn ast ke dar asl be Āmrikā-ye šemāli va janubi*  
*rošd mikard.*

Tamaki yapaloq bargli giyoh bo'lib, aslida Shimoliy va Janubiy Amerikada o'sar edi.

قیسی نوعی از زرد الو است که بسیار شیرین و مطبوع است و در اطراف دماوند فراوان است.<sup>14</sup>

*ḡeyysi navi az zardālu ast ke besyār širin va matbu ast va dar atrof-e damovand*  
*farāvān ast.*

<sup>12</sup> J.Hazratqulov, M. Abdusamatov .Eron adabiyoti xrestomatiyasi. T., 1992.53-bet.

<sup>13</sup> [www.fa.m.wikipedia.org/wiki/tomaco](http://www.fa.m.wikipedia.org/wiki/tomaco)

<sup>14</sup> [www.fa.m.wikipedia.org/wiki/obrikos](http://www.fa.m.wikipedia.org/wiki/obrikos)

Abrikos o'rikning bir turi bo'lib juda shirin va xushbo'ydir va Damovand atroflarida ko'plab uchraydi.

Ushbu misollardagi توتون va قیسی sozlari turkiy o'zlashmalardir

**1.5 Murojaat va hurmatlash mavzusidagi LSG.** Bu mavzuda ham ko'plab turkiy tillardan kirgan o'zlashmalarni ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, آقا, خانم kabi so'zlar eronliklar hayotiga singib ketgan.

آقا	<i>āyā</i>	janob
آبجی	<i>ābji</i>	opa, ona
خانم	<i>xānom</i>	xonim
بیگ	<i>bik</i>	bek
دانش (دانش)	<i>dādosh (dāsh)</i>	aka
بی بی	<i>bibi</i>	amma
کاکا	<i>kākā</i>	aka
خاتون	<i>xotun</i>	ayol,xotin

شهباز بعد از کمی سکوت رو کرد به قهوه چی و گفت: دانش اکبر، دو تا قند پهلو بیار.<sup>15</sup>

*Šahboz bad az kami sukut ru kard be yahveči va goft:*

*dāš akbar du tā yand pāhlu biyor*

Shahboz bir oz sukutdan so'ng qahvachiga qaradi va dedi:

Akbar aka, 2 ta qand olib kel.

- مگه بچه خودتون نیست؟

- نه خانم نوه خواهر مه. اما مته بچه خودم می مونه<sup>16</sup>

*Mage bače-ye xodetun nist? Na xānam nave xāharame ammā messe bače-ye xodam mimune.*

<sup>15</sup> J.Hazratqulov, M. Abdusamatov. Eron adabiyoti xrestomatiyasi. T., 1992. 106-bet.

<sup>16</sup> J.Hazratqulov, M. Abdusamatov. Eron adabiyoti xrestomatiyasi. T., 1992. 221-bet..

- Nahotki bu bola sizniki emas?

- Yoq xonim, singlimning nabirasi. Ammo xuddi o'zimiznikiday.

Bu jumlada *داش* va *خانم* so'zlari turkiy tillardan kirgan o'zlashmalardir. Bu kabi so'zlarni hozirgi fors tilida ko'plab uchratishimiz mumkin.

**1.6. Holat va joy nomlari LSG.** Mazkur guruhni shartli ravishda holat va joy nomlari LSGi deb nomladik va bu guruhga holat va joylashuvni bildiruvchi va shunga yaqin ma'nolardagi so'zlarni kiritdik

اتراق	<i>otrāy</i>	o'troq, bir necha kunga qolish
قاق	<i>γāy</i>	quruq
باتلاق	<i>bātlāy</i>	botqoq
شلوغ	<i>sholuy</i>	tiqilinch
کوچ	<i>kuč</i>	ko'chish
داغ	<i>dāy</i>	tog'
بیلاق	<i>yeylāy</i>	yaylov

در شمال غربی ایران، در ارتفاعات با لایتر از ۱۷۰۰ متر، در شمال شهرستان تالاش بیلاق "شکردشت" وجود دارد.<sup>17</sup>

*dar šemāl-e γarbi-ye iron, dar ertefā'āt-e bālātar az 1700 metr, dar šemāl-e šahrestān-e tālāš yeylāq-e "šokordašt" vojūd dārad.*

Eroning shimoliy g'arbida 1700 metrdan ortiq balandlikda Tolosh shahri shimolida "Shokrdasht" yozgi oromgohi bor.

<sup>17</sup> [www.semorgh.com/culture/defawut.aspx](http://www.semorgh.com/culture/defawut.aspx).

یکی دیگر از ماهی ها گفت: همه رودخانه ها و جویبارها به اینجا می ریزند، البته بعضی از آنها هم به باتلاق فرو می روند.<sup>18</sup>

*yeki digar az māhihā goft: hame-ye rudhānehā va juyibārḥā be injā mirizand, albatte bazi az ānhā be bātlāy foru miravand.*

Baliqlardan boshqa biri dedi: daryo va ariqlarning barchasi shu yerga quyiladi, albatta ularning bazilari botqoqqa ham boradi.

Mazkur misol tariqasida berilgan jummalarda باتلاق، بیلاق، so'zlari turkiy o'zlashmalardir. Xususan بیلاق so'zi haqida Dehxo'doning "Loyatnāme" sida yozilishicha: بیلاق ikki qismdir یی yoki یای "yoz", "لاق" esa makonni anglatuvchi qo'shimcha bo'lib, "yozda yashaydigan joy" ma'nosini anglatadi. U قشلاق "qishlaydigan joy" so'ziga teskari ma'nosidagi so'zdir<sup>19</sup>.

**1.7. Harbiy mavzuga oid LSG.** Ma'lumki qadimda turkiy xalqlar harbiy sohada dovrug'lari baland bo'lgan, ular harbiy qurollar, jang usullari va harbiy bo'linmalari tuzilishi jihatidan o'z davrining tengi yo'q armiyasiga ega bo'lishgan. Fors tilida turkiy tillardan kirgan harbiy mavzuga oid o'zlashmalarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Bu kabi o'zlashmalar uzoq o'tmishga borib taqaladi.

توپ	<i>tup</i>	to'p
طپانچه	<i>tapānče</i>	pistolet
تفنگ	<i>tafang</i>	miltiq
ساچمه	<i>sāčme</i>	sochma (qurol turi)
کشیک	<i>keshik</i>	navbatchilik
اردوگاه	<i>ordugāh</i>	lager

پاسبان که آن گوشه ایستاده بود، تفنگش را این دست به آن دست می کرد.<sup>20</sup>

<sup>18</sup> J.Hazratqulov, M. Abdusamatov. Eron adabiyoti xrestomatiyasi. T., 1992 245-bet

<sup>19</sup> علی اکبر دهخدا. لغتنامه. تهران. ۱۳۷۲/۲۱۱۴۸.

<sup>20</sup> جلال آل احمد ستار. تهران. ۱۳۷۹/۹۵.

*pāsbān ke ān guše istāde bud, tofangašrā in dast be ān dast kard.*

O'sha burchakda turgan posbon, miltig'ini u qo'ldan bu qo'lga o'tkazardi.

دو تفنگدار جلو دروازه بانک در روشنائی فانوس کشیک می دادند.<sup>21</sup>

*do tafangdār jelu-ye darvāze-ye bānk dar rušanoi-ye fānus kešik midādand*

Ikki miltiqli kishi bank eshigi yonida, fonus yorug'i ostida navbatchilik qilishardi.

Bu jumalarda تفنگ, تفنگدار, کشیک kabi so'zlar turkiy o'zlashmalardir.

### 1.8. Kiyinish va bezanish mavzusidagi LSG

بزک	<i>bazak</i>	bezak
دگمه	<i>dogme</i>	tugma
بقه	<i>yaye</i>	yoqa
چکمه	<i>čakme</i>	etik
کاکل	<i>kākel</i>	kokil

دو دست رخت زری خریدند، تنگ، گیلās سوزنی، گلاب پاش، مشربه، جعبه بزک و سمه جوش،

سماور برنجی پرده قلمکار و همه چیز خریدند.<sup>22</sup>

*do dast raxt-e zari xaridand, tāng, gilās, suzani, golābpāš, mašrabe, ja'be-ye*

*bazak, vāsmejuš, samāvar-e berenji, parde-ye qalamkār va hame čiz xaridand*

Ikki adad zar tikilgan ko'ylak, so`zana choyshab, grafin, stakan, gulob sepadigan idish, bezak qutisi, gilamcha, boshga yopadigan to'r, mis samovar, guldor pardalar va boshqa narsalar sotib olishdi

<sup>21</sup> J.Hazratqulov, M. Abdusamatov Eron adabiyoti xrestomatiyasi T., 1992. 45-bet.

<sup>22</sup> J.Hazratqulov, M. Abdusamatov Eron adabiyoti xrestomatiyasi T., 1992. 95-bet.

بالاترین لبه لباس که دور گردان را احاطه می کند یقه نام دارد.<sup>23</sup>

*Bālātarin labe-ye lebās ke dour-e gardān rā ehote mikonad yaʔe nām dārad*

Bo'yinni o'rab turadigan libosning eng baland qismi yoqa deb nomlanadi.

Ushbu misol tariqasida berilgan jummalarda یقه va بزک soʻzlari turkiy tillardan kirgan soʻzlardir.

**1.9. Ijtimoiy turmush LSG.** Quyida keltirilgan soʻzlar turli xil ijtimoiy mavzuga oid boʻlganligi uchun bu guruhni shartli ravishda shunday nomladik.

قشقرق	<i>ʔešʔereʔ</i>	qichqiriq
ایل	<i>il</i>	el
قاچاق	<i>ʔāčāʔ</i>	kantrabanda
جارچی	<i>jārčī</i>	jarchi
قدغن	<i>ʔadayan</i>	taqiqlov
ارمغان	<i>armuyon</i>	sovg'a

هیچ اتفاق نیفتد که به صدای بوق اول، در گاراژ باز شود.<sup>24</sup>

*hič ettefāʔ nayoftad ke be sedā-ye buʔ-e avval dar-e gārāʔ bāz šavad.*

Birinchi signaldayoq garaj eshigining ochilishi hech sodir boʻlmagan.

<sup>23</sup> www.pcparsi.com/0-1256

<sup>24</sup> جلال آل احمد سنار تهران ۱۳۷۹/۱۴/۲۴

صدای داد و فریاد و قشقرق زنها و مرد ها فضای دواخانه را بر داشته بود.<sup>25</sup>

*sedā-ye dād-o faryod va yešyereγ-e zanhā va mardhā fazo-ye davāxonerā  
bardāšte bud.*

Ayollar va erkaklarning dod-faryodlari va baqirishlari butun dorixonani egallab olgan edi.

Bu jumladagi بوق va قشقرق so'zlari aynan turkiy tillardan kirgan so'zlar hisoblanadi.

Bu kabi so'zlarni ham fors tili lug'at tarkibida ko'plab uchratishimiza mumkin.

---

<sup>25</sup> J.Hazratqulov, M. Abdusamatov. Eron adabiyoti xrestomatiyasi. T., 1992. 226-bet.

## **II bob. Hozirgi fors tilidagi turkiy o'zlashmalarning morfologik tahlili**

Hozirgi fors tilidagi turkiy tillardan kirgan o'zlashmalar boshqa arabiy va yevropa tillaridan kirgan o'zlashmalar singari fors tili lug'at tarkibidan muqim o'rin olib bo'lgan. Har qanday tilda o'zlashgan begona til unsurlari, yangi til muhitida uzoq muddatli moslashuv jarayonini boshidan kechiradi. Bu moslashuv jarayoni til sistemasining turli tarkibiy bosqichlarida amalga oshadi. Odatda begona so'z yangi til muhitida fonetik, grafik, ma'noviy, grammatik va uslubiy bosqichlarda moslashuv jarayonini boshdan kechiradi.<sup>26</sup>

Turkiy o'zlashmalar ham mana shunday moslashuv jarayonini o'tkazgan. Bu moslashuv jarayonlari uzoq muddatli jarayon bo'lib, to yangi so'z yoki birikma til sistemasining hamma bosqichlarida o'z o'rnini topmaguncha o'zlashtiruvchi til sistemasiga singib ketmaydi.

Turkiy o'zlashmalar fors tili lug'at tarkibidan joy olgach grammatik moslashuvning bir bosqichi bo'lgan morfologik moslashuv jarayonini boshidan kechiradi.

Morfologik moslashuvda turkiy tillardan o'zlashgan so'z turkumi, fors tilida shu so'z turkumiga oid grammatik kategoriyalarga moslashadi. Bunda agar o'zlashma ot so'z turkumiga oid bo'lsa ko'plik kategoriyasi, otdan so'z yasash usullariga, sifat so'z turkumiga oid bo'lsa sifatlarning qiyosiy va orttirma darajasiga va so'z yasash moddellariga, fe'lga tegishli bo'lsa fe'lning so'z yasash, zamon, mayl va nisbat kategoriyalariga moslashadi.<sup>27</sup>

To'plangan misollar shuni ko'rsatadiki, hozirgi fors tilidagi turkiy o'zlashmalar quyidagi so'z turkumlariga bo'linadi.

---

<sup>26</sup> A.Quronbekov .Fors tili leksikologiyasi. T., 2008.61-bet.

<sup>27</sup> A.Quronbekov .Fors tili leksikologiyasi. T., 2008.63-bet.

**2.1 Ot. اسم - esm.** Ot soʻz turkumi morfologiyaning eng muhim boʻlagi hisoblanadi va u predmetning nomini anglatadi. Hozirgi fors tilida ot soʻz turkumiga oid turkiy tillardan kirib kelgan oʻzlashmalarni koʻplab uchratishimiz mumkin. Masalan:

قیچی	<i>γeyči</i>	qaychi
چاقو	<i>čāyu</i>	pichoq
دشک	<i>došak</i>	toshak
قابلمه	<i>γāblame</i>	kastryulka
طاق	<i>otāy</i>	xona

Fors tilida ham otlar ikki turga boʻlinadi, turdosh va atoqli otlar. Hozirgi fors tilidagi turkiy oʻzlashmalarni biz har ikkalasida ham uchratishimiz mumkin.

• Turdosh otlar اسم عام Hozirgi fors tilidagi juda ham koʻp turkiy oʻzlashmalar turdosh otlarga mansubdir. Masalan:

تسمه	<i>tasme</i>	tasma
بغچه	<i>boγče</i>	tugun, buqcha
تلمبه	<i>tolombe</i>	nasos
الک	<i>alak</i>	elak
گمرک	<i>gomrok</i>	bojxona

عمو بچه اش را بر داشت و گفت: "من رفتم، شاید به کله ام زد و دو باره برگشتم".<sup>28</sup>

*amu bāyčeašrā bar dāšt va goft: "man raftam, šāyad be kalleam zad va do bāre bar gaštam"*.

Togʻa tugunini koʻtardi va dedi: "Men ketdim, ehtimol birdan miyamga urdimi, yana uyga qaytdim".

او هم پیاده شد، تلمبه را آورد.<sup>29</sup>

*u ham piyode šod, tolomberā āvard.*

<sup>28</sup> J.Hazratqulov, M. Abdusamatov Eron adabiyoti xrestomatiyasi T., 1992.168-bet.

جلال آل احمد سنار تهران ۱۳۷۹/۱۰۴<sup>29</sup>

U ham tushib nasosni olib keldi.

Yuqoridagi jummalarda بقچه va تلمبه so`zlari turkiy tillardan o`zlashgan turdosh otlardir

• Atoqli otlar اسم خاص *esm-e xos* Hozirgi fors tilida bir qator turkiy atoqli otlarni ham uchratishimiz mumkin. Ulardan biri erkak va ayollarning ismlari:

بھادر	<i>Bahāder</i>
ارسلان	<i>Arslān</i>
افشار	<i>Afšār</i>
تمور	<i>Temur</i>
سنجر	<i>Sanjar</i>
جیران	<i>Jeyrān</i>
آیدین	<i>Āyđin</i>
قلیچ	<i>Qelič</i>

Turli geografik joylar nomlari.

دریای خزر	<i>Daryā-ye xazar</i>	Kaspiy dengiz (Eronning shimolida joylashgan yirik suz xavzasi)
آق داغ	<i>Āyđāy</i>	Oq tog' (Ordibehesht o`stonida joylashgan 4867 gektarli hudud)
آقا قاپا	<i>Āy yāyā</i>	Oq qoya (Eron shimolidagi g'orlardan biri)
تشلاق	<i>Tashlāy</i>	Toshloq(Kurdistondagi daryo)
قزل اوزن	<i>yez el ozan</i>	Qizil o`zan (Zendjondagi daryo)

Shuni takidlab o'tish joizki, hozirgi Eron hududining, ayniqsa shimoliy va shimoliy g'arbiy mintaqalaridagi ko'plab daryolar, tog'lar, g'orlar, o'rmonlar kabi geografik hududlarning nomlari turkiy tillarda nomlangan.

Avval aytib o'tkanimizdek hozirgi fors tilidagi ot so'z turkumiga oid turkiy o'zlashmalar morfologik moslashuvda o'zlariga ko'plik qo'shimchalarini qabul qilishlari mumkin. Odatda ular ها-hā universal ko'plik qo'shimchasini qabul qilishadi. Masalan:

آره، يکيشون بی معرفتی کرده بود منم دو تا از قرقی هاش را قر زدم.<sup>30</sup>

*Āre, yekišun bi marifati karde bud, manam du tā yeryihāšrā yor zadam.*

Ha, ulardan biri tarbiyasizlik qilgan edi, men ham qirg'iylarining ikkitasini o'g'irlab olgan edim.

Ushbu jumladagi قرقی so'zi ها ko'plik qo'shimchasini qabul qilgan.

قرقی+ ها ← قرقی ها

